

INKLYUZIV TA'LIM, INKLYUZIV TA'LIMNING EHTIYOJLARI VA SABABLARI

Djurayeva Sohiba Barat qizi

JDPU Maxsus pedagogika kafedrasи o'qituvchisi

Abdumurodova Gulzoda Ilhom qizi

O'zbek tili va adabiyot fakulteti 2-kurs talabasi

Anotatsiya

Ushbu maqolada inklyuziv ta'lism haqida tushuncha , imkoniyati cheklangan bolalarni umum ta'lism muhitiga qo'shish , inklyuziv ta'limgning asosiy ehtiyojlarini amalga oshirishga turtki bo'lgan sabablarni va jamiyatdagi ehtiyojlari haqida fikrlar yuritiladi.

Kalit so'zlar: imkoniyati cheklangan bola , inklyuziv ta'lism , dunyoqarash, jismoniy harakatlar

Inklyuziv ta'lim nima? Uning nogiron bolalar uchun qanday afzallikkari bor? Bu savollarga so'nggi yillarda tez-tez duch kelyapmiz . Keling. Ushbu savollarni ko'rib chiqamiz.

Inklyuziv ta'lism – hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil maktab va bir xil sinfda ta'lism olish jarayoni hisoblanadi. Ya'ni imkoniyati cheklangan bola bilan sog'lom bolalar bir xil e'tiborda ta'lism olishi kerak . Bu davlat tomonidan kafolatlangan. Jismoniy yoki aqliy jihatdan imkoniyati cheklangan bolalar ko'pincha jamiyatda e'tibordan chetda qoldiriladi. Ba'zi ota –onalar farzandidan uyalib, berkitishib qo'yishadi va natijada bolalarda tashqi muhit bilan aloqa cheklanadi . Inklyuziv ta'lism esa ularni umumiyl maktab muhitiga qo'shgan holda boshqa bolalar bilan muloqotda bo'lishiga, birga rivojlanishida yordam beradi. Inklyuziv ta'limgni samarali tashkil qilishda ham maktablarda sharoitlar ham asosiy ro'l o'ynaydi. Bunda maxsus jihozlangan sinflar , qo'shimcha o'quv materiallari, eshitish vositalari va jismoniy harakatlar uchun sharoitlar bo'lishi kerak. Ayniqsa , jismoniy mashqlar imkoniyati bolalarning sog'lig'i uchun muhim.[1 (Abdullaev, November 2022)]

Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyoj uning jamiyatga va maxsus ehtiyojli bolalar uchun quyidagi jihatlaridan kelib chiqadi:

- Inklyuziv ta'lism maxsus ehtiyojli bolarga doimo o'z oilasi , mahallasi va qarindoshlari urug'lari davrasida bo'lish imkonini beradi
- in¹klyuziv ta'lism barcha uchun ta'lism sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo'lib xizmat qiladi;

¹ (образовани, 2021) inklyuziv ta'lismva yangicha pedagogic yondashuvlar

_uyidan, oilasidan , ota –ona mehridan uzoqda bo'lgan bola diydasi qattiq bo'lib o'sadi, chunki oila tarbiyaning bosh markazidir.

Biz ko'cha-ko'yda, mahallada yurganimizda imkoniyati cheklangan bolalarni ko'rib qolsak, tushunib-tushunmasdan uni ajratib qo'yishga u bilan muloqot qilmaslikka harakat qilamiz.Aksincha esa bu eng katta xato. Biz bunday bolalarni jamiyatga qo'shishimiz , ular bilan muloqotda bo'lishimiz ular uchun eng katta yordamimiz hisoblanadi . Jamiyatda nogiron bolalarga nisbatan yanglish fikr va munosabat mavjud Ular haqida ma'limotlar kamligi va yoshligidan maxsus muassasalarda yopiq tarzda ta'lim –tarbiya berilishi bunga sabab bo'lishi mumkin.Bunday munosabatni yo'qotish yoki kamaytirish ancha mushkul ishdir, lekin tajribadan shu narsa ma'lumki kattalarga nisbatan bolalar farqli va o'xhash jihatlarini tezroq anglar ekan. Agarda maxsus ta'limga ehtiyoji bor bolalar bilan birgalikda ta'lim olsa, bu barcha bolalarni nogironlarga nisbatan o'zlari singari bola ekanligini anglab,kamsitmasliklarini ta'minlagan bo'lar edi

Inklyuziv ta'limda maktablarning sharoiti o'qituvchining malakasi, direktor psixolog kabilar asosiy ro'l o'ynaydi. Inklyuziv ta'lim p'zining jihozlanganligi va sharoitidan kelib chiqqan holda tashkil qilinadi. Sinfda maksimal 30 ta sog'lom o'quvchi ta'lim olsa, imkoniyati cheklangan bola 3 tadan oshmasligi kerak. Maxsus ta'limga muhtoj bolalarga psixolog ham alohida e'tibor talab etiladi.

2014- 2016- yillarda xalq ta'lim vazirligi va Respublika moliyaviy inkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy moslashtirish markazi hamkorligida "O'zbekiston Respublikasida alohida ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta'lim " loyihasi amal;ga oshirilgani bu borada muhim qadamlardan biri bo'ldi. Yevropa ittifoqi tomonidan qo'llab- quvvatlandi. Loyihaga ko'ra , yengilroq shakldagi nogironligi bo'lgan bolalar O"zbekistonning 5 ta viloyatdagi inklyuziv ta'lim tamoyillari asosidagi tajriba umumta'lim maktablariga ko'chirildi.[2 (Noilaxon, 2022-12-31)]

Inklyuziv ta'limning zarurati va sabablari quyidagicha asoslanadi:

Adolatli jamiyatni shakllantirish – ya'ni jamiyat barchans a'zolar uchun teng imkoniyat yaratishi kerak. Inklyuziv ta'lim bu maqsadga erishishda muhim ro'l o'ynaydi .

Barcha bolalar uchun ta'lim sifatli ta'lim berish- ba'zi bolalar an'anaviy maktablarda to'laqonli ta'lim ola olmaydi, shuninsh uchun ularga moslashtirilgan

Nogironligi bo'lgan yoshlar kelajakda mustaqil hayot kechirish va ish toppish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun ta'lim olishlari zarur . Maxsus ta'limga ehtiyoji bor bolalarni qabul qilib, ta'lim olishlariga imkon yaratса, oilalarfga ham yengillik bo'ladi.

Xulosa

Inklyuziv ta'lim – bu faqat nogiron bolalar uchun emas, baqlki butun jamiyat uchun foydali tizim . Ushbu yondashuv ta'lim sifatini oshirish , teng imkoniyatlarni yaratish va ijtimoiy moslashuv jarayonini yaxshilashda muhim

ahamiyatga ega . Shu sababli, inklyuziv ta'limni rivojlantirish va uni keng ommaga joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1] (Abdullaev, November 2022) Inklyuziv ta'limga bo'lган ehtiyojlar va sabablar , inklyuziv ta'limga jalb qilish Needs and reasons for inclusive education , involment in inclusive education.
- [2] (Noilaxon, 2022-12-31) Inklyuziv ta'limga bo'lган ehtiyoj va sabablar
- [3] (Saidova, 2023) Alovida ehtiyojga ega bo;lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish xususiyatlari
- [4] (Shuxratovna, May 17, 2024) Inklyuziv ta'lim va tarbiya nomli metodik qo'llanmasi